

## QORAMOLLAR BOVIKOLYOZI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA DIAZINON PREPARATINING SAMARADORLIGINI O‘RGANISH

O‘. I. Rasulov, F. S. Pulotov, E. Shoymardonov, R. Rasulov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,  
Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

**Annotation:** This article presents materials on the effectiveness of the diasinone against cow bovicoliase in laboratory conditions.

**Kalit so‘zlar:** bovikola, bovikolyoz, diazinon, konsentratsiya, piretroid, junxo‘r, ektoparazit, emulsiya.

**Kirish.** Oxirgi yillarda chorvachilikni dori-darmonlar, insektitsidlar va boshqa preparatlar bilan taminlanishini qiyinlashuvi, hayvonlar migratsiyasini oshishi, chorvachilik binolaridagi veterinariya-sanitariya holatining yomonlashuvi oqibatida qoramollar orasida ektoparazitarni ayniqsa, junxo‘rlarning keskin ko‘payib borishi kuzatilmoqda. Bu chorva mollarning mahsuldorligini oshirish hamda aholini sifatli va ekologik toza chorva mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishdek dolzarb muammolarni amalga oshirishda jiddiy to‘sqinlik qiladi.

Qoramollar bovikulozining qo‘zg‘atuvchisi haqidagi dastlabki ma‘lumotlarni italiyalik biolog olim F. Redi (1668, 1686) o‘z ishlarida qayd etgan. Bunda u bovikuloz qo‘zg‘atuvchisi - *Bovicola bovis* (junxo‘rlar) - 1,5-2,5 mm uzunlikdagi qanotsiz, kichkina hasharot bo‘lib, tanasi uzunchoq shaklda, sarg‘ish tusda, Mallophagidae turkumiga, Trichodectidae oilasiga, *Bovicola* avlodigamansubligini aniqlagan. Bovikolalar qoramollarda yil mobaynida uchraydi, lekin ularning zararlanish darajasi va zararlanish intensivligi mavsumga qarab o‘zgarib turadi. Mas: qish oylarida zararlanish darajasi - 82,4%, bahor oylarida - 99,1%, yoz oylari - 34,2%, kuz oylari esa - 63,2% ni tashkil etadi. Shunday qilib, bovikolalarning eng rivojlanish cho‘qqisi bahor oyiga to‘g‘ri keladi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Ayni vaqtda chorvachilik xo‘jaliklaridagi qoramollarning ektoparazitlariga qarshi kurashishda karatin, deltametrin, sumitsidin, ambush, desis hamda mahalliy sipermetrin, sumi-alfa kabi piretroid preparatlar keng qo‘llanilib kelinmoqda. Biroq, ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra, qoramollarni bovikolyoziga qarshi diazinon preparatini davolash va insektitsidlik ta‘sirini Respublikamiz miqyosida hali o‘rganilmaganligi aniqlandi. Shuning uchun ushbu preparat asosan o‘simliklarning zararkunanda hasharotlari uchun ishlab chiqarilgan bo‘lsada, biz ularni qoramollarni bovikolyoziga qarshi davolash va insektitsidlik ta‘sirini o‘rganishni lozim deb topdik.

**Tadqiqot maqsadi.** Qoramollar bovikolyozi to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lish va Diazinon (Diazinon) preparatining insektitsidlik xususiyatlarini laboratoriya sharoitida o‘rganish.

**Tadqiqot natijalari.** Diazinon (Diazinon) – faol ta‘sir etuvchi moddasi 60% diazinon (0,0-dietil-0-(2-izopiril-6-metilpirimidin-4-il)-tiofosfat) va yordamchi komponentlar sifatida neonol, amil efirli sirka kislotasi va kerosin KO dan iborat. Preparat yog‘li suyuqlik bo‘lib, somondan sariq ranggacha to‘q sariq ranggacha. Organik va noorganik erituvchilarda eritish oson. Neytral tampon eritmalarida barqaror, yaxshi issiqlik barqarorligi va fotosurat barqarorligiga ega. Suv bilan aralashganda, u sutli oq emulsiya hosil qiladi.



Toksikologik jihatdan yaxshi o'rganilgan diazinon preparatini qoramollarning bovikolyoz qo'zg'atuvchisi *Bovicola bovis* ga nisbatan insektitsidlik xususiyatlarini o'rganish hamda qoramollarni bovikolyozdan davolash va oldini olishda foydalanish maqsadida biz ularni insektitsidlik xususiyatlarini laboratoriya sharoitida o'rgandik.

Birincha marotaba o'rganilayotgan piretroid preparatlarning har xil konsentratsiyalari, ya'ni 0,007, 0,008, 0,009, 0,01, 0,02, 0,025, 0,03, 0,035, 0,04, 0,05, 0,06, 0,07, 0,08, 0,09, 0,1 foizli suvli emulsiyasi tayyorlanib, laboratoriya sharoitida Petri idishchasiga joylashtirilgan filtr qog'oziga tajribadagi preparatning suvli emulsiyasidan purkagich dozator yordamida sepildi va ushbu dorilangan filtr qog'oziga yuzasiga yangi terib olingan bovikolalar 30 nusxadan qo'yib yuborildi va o'tkazilgan sinov tajribalari natijasida ushbu preparatlarning eng minimal samarali (100 %) konsentratsiyasi aniqlandi.

Preparatdan ishchi emulsiya tayyorlash uchun sarflanadigan preparat miqdori qo'yidagi formula yordamida aniqlandi:

$A \times V$

$X = \frac{A \times V}{S}$

S

**Bunda:** X - ishchi emulsiyani tayyorlash uchun lozim bo'lgan texnik preparat miqdori (kg,l);

A - tayyorlanishi lozim bo'lgan ishchi emulsiya (suvli emulsiya, s.e.) miqdori (t, l);

V - tayyorlanishi lozim bo'lgan ishchi emulsiya (s.e.) konsentratsiyasi (foiz);

S - konsentrat emulsiyaning FTM si (foiz).

Diazinon preparati bilan qoramollarni bovikolyoziga qarshi davolashdan oldin laboratoriya sharoitida 100 foiz insektitsid samara beradigan konsentratsiyasini aniqlash maqsadida qo'yidagicha sinov-tajriba ishlari o'tkazildi:

**1-tajriba:** 3 ta Petri idishchasi ichki yuzasiga filtr qog'oziga joylashtirilib har bir filtr qog'oziga yuzasiga 3,8 ml dan Diazinon preparatining 0,01 foizli suvli emulsiyasi bilan dorilandi. Shu dorilangan filtr qog'oziga yuzasiga yangi terib olingan 30 nusxadan bovikolalar qo'yib yuborildi va 10 daqiqadan so'ng bovikolalar toza Petri idishchalarga olinib, optimal sharoitga, ya'ni +35 °S haroratdagi termostatga saqlab har 1, 3, 6, 24 soat davomida kuzatish ishlari olib borildi;

**2-tajriba:** Xuddi yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat diazinon S preparatining 0,015 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi;

**3-tajriba:** Xuddi yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat diazinon S preparatining 0,02 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi;

**4-tajriba:** Yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat diazinon S preparatining 0,025 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi;

**5-tajriba:** Yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat diazinon S preparatining 0,03 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi;

**6-nazorat guruhi:** Xuddi yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat toza suv bilan ishlov berildi. Tajriba natijalari 24 soatdan so'ng o'lgan va tirik qolgan bovikolalar soniga qarab aniqlandi va samara ko'rsatkichi (foiz) hisoblandi.

Natijada, preparatni O'K<sub>0</sub> (o'ldirmaydigan konsentratsiya), O'K<sub>50</sub> (50foiz o'ldiradigan konsentratsiya) va O'K<sub>100</sub> (100 foiz o'ldiradigan konsentratsiya) ko'rsatkichlari aniqlandi.



Har bir konsentratsiya 3 martadan qayta o'rganildi. Bovikolalarning o'lish tezligiga va miqdoriga qarab preparatning tasir kuchi ham belgilandi. Bunda:

- 1-tajriba** guruhidagi bovikolalarning - 50 foizi o'lganligi;  
**2-tajriba** guruhidagi bovikolalarning - 70 foizi o'lganligi;  
**3-tajriba** guruhidagi bovikolalarning - 90 foizi o'lganligi;  
**4-tajriba** guruhidagi bovikolalarning - 100 foizi o'lganligi;  
**5-tajriba** guruhidagi bovikolalarning - 100 foizi o'lganligi;  
**6- nazorat** guruhidagi bovikolalarning -100 foizi tirikligi aniqlandi (1-jadval).

**1-jadval. Diazinon preparatini *B.bovis* ga nisbatan insektitsid ta'sirini o'rganish natijasi**

T.r.	Preparat konsentratsiyasi (s.e., foiz)	Dorilangan <i>B. bovis</i> lar soni (nusxa)	24 soatdan so'ng o'lgan <i>B. bovis</i> lar soni (nusxa)	Samara (foiz)
1	0,01	30	15	50
2	0,015	30	21	70
3	0,02	30	27	90
4	0,025	30	30	100
5	0,03	30	30	100
6	Nazorat (toza suv bilan)	30	-	-

**Xulosa.** Shunday qilib, diazinon preparatining eng minimal va 100 foiz samara beradigan 0,025 foizli suvli emulsiyasi qoramollarning bovikolyoz qo'zg'atuvchisi (bovikolalar) ga laboratoriya sharoitida 100 foiz insektitsid samara berishi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Akbaev R.M., Pugovkina N.V. "Bovikolyoz krupnogo roqatogo skota v jivotnovodcheskix xozyaystvax Moskovskoy oblasti" // Jurnal "Veterinariya", Izd. "Logos Press" (Moskva), - 2017.- № 1,- S. 10-13.
2. Благовещенский Д.И. «Определител пухоедов (Маллопхага) домашних животных». Фауна СССР. М.,-Л.: изд. АН СССР, 1940.
3. Ganiev I.M., Aliverdiev A.A. «Atlas iksodoidnyx kleщey», M. «Kolos», 1968, 110-111 str.
4. Ro'zimurodov A. Evolyusiya qonuniyatlari va zoobioxilmaxillik. "Zarafshon" nashriyoti DK, Samarqand, 2008.
5. Ruzimuradov A. Parazitizm biologicheskiy. Optimizatsiya jivotnovodsta., "Zarafshon" DK nashriyoti, Samarqand, 2011.
6. Yatusevich A.I. i dr. Rukovodstvo po veterinarney parazitologii. Minsk IVS Minfina 2015 - 416 s.

